

“O‘ZBEKISTON STATISTIKA AXBOROTNOMASI”

ILMIY ELEKTRON JURNALI

2023
4 (17)-SON

statmirror.uz

UDK: 336.6

O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA TASHKILOTLARINING INVESTISION FAOLIYATI: HOLAT, MUAMMOLAR, TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Eshboyev Dilshod Botir o‘g‘li
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti, mustaqil izlanuvchi
e-mail: edilshodbek1993@mail.ru

ANNOTASIYA. Ushbu maqolada moliyaviy institut hisoblanadigan sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati tushunchasi hamda ushbu faoliyatni tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan va amalda bo‘lgan me’yoriy – huquqiy hujjatlar mazmun – mohiyati ochib berilgan. Mamlakat sug‘urta kompaniyalarining 2021-2022 yillardagi investitsion faoliyatining investitsiya yo‘nalishlari bo‘yicha statistik tahlili, xorijiy davlatlarda sug‘urta tashkilotlari investitsiyalarining yo‘nalishlari va ularning natijalari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ilmiy ish so‘ngida milliy sug‘urta bozorini isloh qilish va kelgusida jadal rivojlantirish bo‘yicha belgilangan asosiy yo‘nalishlardan va sohaning xorij tajribasidan kelib chiqib, sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Sug‘urta kompaniyalari investitsion faoliyatini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish va ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta faoliyati, sug‘urta bozori, moliyaviy institutlar, investitsion faoliyat, investitsion siyosat, sug‘urta tashkilotlarining depozitlari va investitsiyalari, investitsiya instrumentlari, investitsiya portfeli, investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish.

АННОТАЦИЯ. В данной статье раскрыты понятия инвестиционной деятельности страховых организаций как финансовые институты, а также суть и содержание принятых и действующих нормативно-правовых документов по регулирования данной деятельности. Проведен статистический анализ инвестиционной деятельности отечественных страховых организаций за 2021-2022 годы в разрезе направлений инвестиций, по направлениям и результатам инвестиционной деятельности страховых организаций зарубежных стран. Также, в научной работе даны заключения и предложения по совершенствованию инвестиционной

деятельности страховых организаций с учетом намеченных основных направлений по реформированию и ускоренному развитию национального страхового рынка и международной практики, рекомендации по повышению эффективности системы управления инвестиционной деятельностью страховых компаний и обеспечению их финансовой устойчивости.

Ключевые слова: страховая деятельность, страховой рынок, финансовые институты, инвестиционная деятельность, инвестиционная политика, депозиты и инвестиции страховых организаций, инструменты инвестиций, инвестиционный портфель, диверсификация инвестиционного портфеля.

ANNOTATION. This article reveals the concepts of investment activity of insurance organizations as financial institutions, as well as the essence and content of the adopted and current regulatory documents on the regulation of this activity. Provides a statistical analysis of the investment activity of domestic insurance organizations for 2021-2022 yy. in the context of investment directions and results of investment activities of insurance organizations of foreign countries. Additionally, the scientific work provides conclusions and proposals for improving the investment activities of insurance organizations, taking into account the outlined main directions for reforming and accelerated development of the national insurance market and international practice, recommendations for improving the effectiveness of the investment management system of insurance companies and ensuring their financial stability.

Key words: insurance activities, insurance market, financial institutions, investment activities, investment policy, deposits and investments of insurance organizations, investment instruments, investment portfolio, diversification of the investment portfolio.

KIRISH

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining uzlusiz va barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri – bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini tashkil etuvchi sug‘urta faoliyatidir. Zero sug‘urta faoliyati nafaqat biznes tavakkalchiligi oqibatlarini va iqtisodiy munosabatlarda yuzaga keladigan xatarlarni bartaraf etishning hamda ijtimoiy hayotdagi barqarorlikni taminlashning muhim omili, balki mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilishninig asosiy manbai hisoblanadi.

O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozorini tubdan isloq qilish va sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarning maqsadi sug‘urtaga ishonchni oshirish va mustahkamlash, sug‘urta xizmatlarining turlari va sifatini oshirish orqali sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minalash, ularning investitsion faoliyatini kengaytirish asosida mamlakat iqtisodiy tizimidagi o‘rnini oshirishga qaratilgan.

Sug‘urta sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida milliy sug‘urta bozorining rivojlanishidagi ijobiy tendensiyalar sug‘urta tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlarining turi, sifati va hajmining yildan-yilga

keskin oshib borishida, ular moliyaviy holatining yaxshilanishida, shuningdek, investitsion faoliyatining tez sur'atlarda rivojlanishida yaqqol kuzatilmogda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"[2] doirasida mamlakatda iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishida moliyaviy institutlarning o'rni va moliyaviy ko'magi juda muhim omil hisoblanadi. O'z navbatida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 40dan ortiq sug'urta tashkilotlarining moliyaviy institut sifatidagi muhim faoliyat turlaridan biri ularning investitsiya faoliyatidir.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga [1] muvofiq sug'urta tashkilotlari investitsion faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin bo'lib (14-modda), bu turli sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan tushgan sug'urta mukofotlari va faoliyati natijasida oladigan daromadlaridan tashkil topadigan erkin moliyaviy resurslarini investitsiya maqsadlariga yo'naltirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qarori bilan milliy sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishning asoisiy yo'naliishlari qatorida sug'urta bozorini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari ham belgilab berilgan. Ushbu maqsadli ko'rsatkichlarga muvofiq, 2022-yil yakuni bilan jami sug'urta mukofotlari hajmini 5,2 trln.so'mga, sug'urta tashkilotlarining jami investitsiyalarini esa 5,3 trln.so'mga etkazish ko'zda tutilgan edi[3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish, sohaning moliyaviy barqarorligini oshirish va investitsion faoliyatini kengaytirish orqali uni iqtisodiy faoliyatning muhim tarmog'iga aylantirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar va soha mutaxassislarining ilmiy izlanishlari va tadqiqotlarida o'rganish ob'ekti bo'lib, natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalar sug'urta tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga oid tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos hisoblanadi.

Sug'urta faoliyatini takomillashtirish, sug'urta tarmog'ida risklarni boshqarish va strategik rejallashtirish masalalarini, shuningdek, sug'urta ishi sohasining nazariy masalalarini ishlab chiqish bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar va mutaxassislar o'z tadqiqot ishlari bilan katta hissa qo'shganlar. Xususan, xorijiy olimlardan Yu.Axvediani, T.Asabina, V.Gomelli, N.Grishenko, Ye.Dyujikov, I.Krasnova, Ye.Kolomin, F.Konshin, N.Krichevskiy, V.Rayxer, L.Reytmann, V.Suxov, Yu.Spletuxov, K.Turbina, A.Syganov, V.Shaxov, T.Fedorova, R.Yuldashev, L.Yurchenko, M.Spens, Dj.Farra, D.Bland, Dj.Dikson, D.Koch, A.Manes, E.Xelfert va boshqalar shunday olimlar va mutaxassislar jumlasidan.

Shuningdek, Texas universitetining sug'urta va moliyaviy rejallashtirish bo'yicha professori Richard Kyuzenberri, Florida universitetining moliya va sug'urta professori Maykl Moliorti, Illinoys universitetining sug'urta menejmenti

va riskni boshqarish bo'yicha professori Djon Kuns, Pensilvaniya universitetining sug'urta va aktuariylar bo'yicha professori Robert Klements, "Erie Insurance" (AQSH) sug'urta kompaniyasi direktori, sug'urta biznesi va risklarni boshqarish bo'yicha taniqli tadqiqotchi Devid Knoulz sug'urta xizmatlari va sug'urta menejmenti, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi va sug'urtalashda riskni baholash, sug'urta tarmog'ida innovatsiyalar, shu jumladan, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilidan foydalanish, sug'urta tashkilotlarining risklarini modellashtirish va moliyaviy barqarorligini baholash masalalarini tadqiq qilganlar.

O'z navbatida, sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati va moliyaviy tahlil jihatlari xorijlik olimlardan A.Bautova, S.Berezina, S.Boronenkova, L.Voronina, T.Gvariani, E.Grebenshikov, Ye.Jukov, M.Ivanova, M.Isalova, E.Kaganovskaya, N.Krichevskiy, N.Kuzovleva, S.Kulikov, Ye.Mazanova, N.Nikulina, L.Orlanyuk - Malitskaya, Ye.Prokopeva, Yu.Slepuxina, S.Tixonov, A.Sheremet, A.Shiryayev, V.Yanov, S.Yanova, J.Perar, F.Fabotssi va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha yoritilgan.

Jumladan, amerikalik iqtisodchi olim Emmett J.Vaughan o'zining "Sug'urta tamoyillari va amaliyoti" ("Principles and practic of insurance") asarida[7] sug'urta sohasining tamoyillari va metodlari to'g'risida, George Edward Rejda o'zining "Sug'urta nazariyasi" ("The theory of insurance")[8] nomli asarida sug'urta faoliyatining turli yo'nalishlari, shu jumladan aktuariy hisob-kitoblari va sug'urta tamoyillari to'g'risida, amerikalik olim va aktuariy, sug'urta faoliyati bo'yicha ko'plab asarlar, shu jumladan "Sug'urta iqtisodiyoti va risklar tahlili" ("Insurance Economics and Risk Analysis") nomli asar muallifi Richard D.Phillips[9] sug'urta bozori, riskni modellashtirish va sug'urta kompaniyalarini boshqarish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Shuningdek, iqtisodchi olim va aktuariy Richard Kueynten (Richard C.Quentin) "Sug'urta tahlili va modellashtirish" ("Insurance Analysis and Modeling") asarida[10] sug'urta faoliyatining turli yo'nalishlarini, shu jumladan riskni baholash, sug'urta portfeli tahlili va sug'urta mahsulotlarini modellashtirishni, nemis olimi va aktuariy, "Aktuar matematika" ("Actuarial Mathematics") asari muallifi Newton L.Bowers[11] aktuar hisob-kitob va sug'urta tahlilida qo'llaniladigan matematik modellarni ko'rib chiqqan.

Sug'urta faoliyatining barqaror rivojlanish muammolari va ularning echimi, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, investitsion faoliyati va uni takomillashtirish masalalari bo'yicha respublikamiz oimlaridan X.M.Shennaev, T.Boymuratov, Q.M.Qoldoshev, Sh.S.Nasreddinova, M.A.Mirsodiqov, I.G.Kenjaev, M.S.Hamroev, J.T.Nosirov, L.SH.Toshnazarova, D.A.Baratova, N.M.Boboeva, M.R.Ibodullaev, Sh.A.Zokirxo'jaeva, A.Sh.Mirzaeva, Sh.B.Raimova, A.U.Gafforov, E.S.Egamberdiev, J.N.Fayzullaev va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Shu bilan birga, sug'urta tashkilotlari investitsion faoliyatining rivojlanishi masalalari bo'yicha juda ko'plab xorijiy oimlar va mutaxassislar ilmiy tadqiqotlar olib borgan bo'lsalarda, O'zbekiston sharoitida sug'urta tashkilotlari investitsion faoliyatini boshqarish va uning sifatini baholash masalalari (ayniqsa, sug'urta

tashkilotlarining asosiy faoliyat turlari kesimida) bo'yicha ilmiy ishlar yetarli emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurudagi sobiq Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanildi. Ilmiy ishimiz ob'ekti bo'lib mahalliy va xorijiy sug'urta tashkilotlari, predmeti bo'lib esa sug'urta tashkilotlarining investitsion faoliyati hisoblanadi. O'zbekistonda sug'urta tashkilotlari investitsion faoliyatining statistik tahlili bo'yicha mazkur ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy mushohada, tizimli tahlil, qiyosiy va dinamik tahlil, statistik kuzatish, statistik guruhlash, o'rtacha miqdorlar, iqtisodiy indekslar, dinamika qatorlari, statistik jadvallar va grafiklar kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning tarkibi va manbalari bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinsa, ko'rishimiz mumkinki, uning asosiy manbalari – bu davlat budjeti, pensiya fondi va sug'urta tashkilotlari hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda sug'urta bozorini jadal rivojlantirish juda muhim hisoblanadi va bu orqali iqtisodiyotga uzoq muddatli investitsiya kiritishning mustaqil manbasini yaratish mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qaroriga muvofiq milliy sug'urta bozorini jadal rivojlantirish bo'yicha belgilab berilgan asosiy yo'nalishlardan biri – "sug'urta bozori professional ishtirokchilarining kapitallashuv darajasini, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning aktivlari sifatini yaxshilash, shuningdek, sug'urtalovchilarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish"dan iborat.

Mazkur qarorga asosan sug'urta sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning natijalari sug'urta tashkilotlari sonining ko'payishi va ular tomonidan ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlarining turlari, sifati hamda hajmining katta sur'atlarda o'sib borishi bilan birgalikda, ularning investitsion faoliyatini rivojlanishida ham ko'rinxoqda.

Sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini oshishiga ta'sir etuvchi omillardan biri – bu ularda o'z mablag'larining yetarli hajmda mavjudligi hisoblanadi. O'z navbatida, sug'urta tashkilotlari o'z mijozlari va kreditorlari oldidagi majburiyatdan tashqari mavjud bo'lgan vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qo'shimcha foya olish maqsadida investitsiya maqsadlariga yo'naltiradilar. Shu sababli, ushbu maqsadga erishish o'z sug'urta zaxiralarini to'g'ri investitsiya qilishga bog'liq bo'ladi.

O'z navbatida, har bir sug'urta tashkiloti uning investitsiya imkoniyatiga quyidagi juda ko'p omillar ta'sir qilishini inobatga olishi lozim:

- sug'urta mukofotining hajmi;

- sug‘urta portfelining tarkibi;
- sug‘urta operatsiyalarining zararliligi yoki foydaliligi;
- sug‘urta fondlarini tuzish bo‘yicha davlat tomonidan tartibga solishning shartlari;
- sug‘urta shartnomalarining muddati;
- o‘z mablag‘larining hajmi va boshqalar.

Demak, aytishimiz mumkinki, sug‘urta tashkilotlarining investitsiya imkoniyati ularning moliyaviy resurslarining hajmi, xarakteri va tarkibiga ko‘p jihatdan bog‘liq ekan.

Yuqorida qayd etilganidek, sug‘urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining asosiy manbasi – bu sug‘urta mukofoti hisoblanadi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurudagi sobiq Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligining oxirgi 3 yillik ma’lumotlarini tahlil qilsak, sug‘urta turlari va xizmatlarini ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlarining yalpi sug‘urta mukofoti hajmi 2020-yilda 2213,7 mlrd.so‘mni va 2021-yilda 3731,8 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakuni bilan 6231,7 mlrd.so‘mga yetgan, yoki ushbu davr mobaynida sug‘urta mukofoti hajmi 2,8 barobarga o‘sgan (1-jadval).

1-jadval

Umumiylar sug‘urta mukofotlari[12]


Ko‘rsatkichlar	01.01.2022 y.		01.01.2023 y.		O’sish sur’ati, %
	mlrd. so‘mda	jamiga nisbatan % da	mlrd. so‘mda	jamiga nisbatan % da	
Jami	3731,8	100,0	6231,7	100,0	166,9
Umumiylar sug‘urta tarmog‘ida:	3015,8	80,8	4707,0	75,5	156,1
- <i>majburiy sug‘urta</i>	476,6	12,8	491,3	7,9	103,1
- <i>ixtiyoriy sug‘urta</i>	2539,2	68,0	4215,8	67,7	166,0
Hayotni sug‘urta qilish tarmog‘ida:	717,0	19,2	1524,7	24,5	212,6
- <i>majburiy sug‘urta</i>	25,7	0,7	26,8	0,4	104,3
- <i>ixtiyoriy sug‘urta</i>	691,3	18,5	1497,9	24,0	216,7

Umumiylar sug‘urta mukofoti tarmoq tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, uning 4707,0 mlrd.so‘mi (yoki jami sug‘urta mukofotining 75,5%) umumiylar sug‘urta tarmog‘idagi tashkilotlarga, qolgan 1524,7 mlrd.so‘mi (yoki 24,5%) esa hayotni sug‘urta qilish tarmog‘idagi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, o‘tgan yilga nisbatan sug‘urta mukofoti tushumining nominal o‘sish sur’ati umumiylar sug‘urta tarmog‘i boyicha 156,1%ni hayotni sug‘urta qilish tarmog‘ida esa 212,6%ni tashkil etgan. Jami sug‘urta mukofotlarining 5713,7 mlrd.so‘mi (yoki 91,7%) ixtiyoriy sug‘urta turlaridan, 518,1 mlrd.so‘mi (8,3%) esa majburiy

sug‘urta turlaridan tushgan tushumlar hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlarni o‘tgan 2021-yil ma’lumotlari bilan solishtirganda ko‘rinib turibdiki, ixtiyoriy sug‘urtadan mukofot tushumining jami sug‘urta tushumidagi ulushi 5,2%ga oshgan.

Sug‘urta tashkilotlarining 2023-yil birinchi yarim yilligidagi faoliyati yakunlariga ko‘ra yalpi sug‘urta mukofoti hajmi 3778,2 mlrd.so‘mni tashkil etgan va 2022-yilning mos davriga nisbatan 36,3%ga o‘sgan (2-jadval).

Umumiyligida sug‘urta mukofotining 3581,8 mlrd.so‘mi yoki jami sug‘urta mukofotining 95,0% umumiyligida sug‘urta tarmog‘idagi tashkilotlarga tushgan va 2022-yilning shu davriga nisbatan 80,9%ga o‘sgan. O‘z navbatida, hayotni sug‘urta qilish tarmog‘idagi tashkilotlarga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofoti miqdori o‘tgan yilga nisbatan keskin kamaygan (salkam 4 barobarga) va 196,4 mlrd.so‘mni tashkil etgan.




1-grafik. Sug‘urta tashkilotlarining 2021-2022-yillardagi sugurta mukofotlari[12]

2-jadval

Umumiyligida sug‘urta mukofotlari[12]

Ko‘rsatkichlar	30.06.2022 y.		30.06.2023 y.		O’sish sur’ati, %
	mlrd. so‘mda	jamiga nisbatan % da	mlrd. so‘mda	jamiga nisbatan % da	
Jami	2 771,1	100,0	3778,2	100,0	136,3
Umumiyligida sug‘urta tarmog‘ida:					
- majburiy sug‘urta	1980,1	71,0	3581,8	95,0	180,9
- ixtiyoriy sug‘urta	241,4	9,0	342,7	9,0	142,0
- hayotni sug‘urta qilish tarmog‘ida:	1738,7	63,0	3 239,1	86,0	186,3
- majburiy sug‘urta	791,0	29,0	196,4	5,0	24,8
- ixtiyoriy sug‘urta	9,8	0,0	12,8	0,0	129,8
- hayotni sug‘urta qilish tarmog‘ida	781,2	28,0	183,6	5,0	23,5



2-grafik. Sug'urta tashkilotlarining 2022-2023-yil yanvar-iyundagi sugurta mukofotlari[12]

Respublika bo'yicha umumiy sug'urta tarmog'ida 2021-2022-yillar uchun yalpi sug'urta mukofotining tashkilotlar miqiyosidagi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, uning asosiy qismi 10ta eng yirik sug'urta kompaniyalariga to'g'ri kelmoqda (3-jadval).

3-jadval

**Umumiy sug'urta sohasida 10 ta eng yirik sug'urta kompaniyasining sug'urta mukofotlari to'g'risida ma'lumot
(hayot sug'urtasidan tashqari) [12]**

№	Sug'urta kompaniyalari nomi	Umumiy sug'urta mukofoti, mlrd. so'm		Sug'urta kompaniyasi ulushi, %	
		01.01.2022	01.01.2023	01.01.2022	01.01.2023
JAMI		2 995,7	4672,3	100,0	100,0
1	"APEX INSURANCE"	229,1	782,5	7,6	16,7
2	"O'ZBEKINVEST"	385,4	930,5	12,9	19,9
3	"O'ZAGRO-SUG'URTA"	261,0	323,3	8,7	6,9
4	"KAFOLAT SUG'URTA"	223,1	315,5	7,4	6,8
5	"GROSS SUG'URTA"	343,8	296,9	11,5	6,4
6	"MY-INSURANCE"	185,3	196,3	6,2	4,2
7	"KAPITAL SUG'URTA"	116,6	149,7	3,9	3,2
8	"ASKO-VOSTOK"	61,1	122,7	2,0	2,6
9	"ALFA INVEST"	156,3	301,9	5,2	6,5
10	"TEMIRYO'L-SUG'URTA"	135,3	156,4	4,5	3,3

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, umumiy sug'urta faoliyati bilan shug'ullanayotgan 34ta sugurta tashkilotlarining yalpi sug'urta mukofoti umumiy hajmida 10ta eng yirik kompaniyaning 2021-yildagi ulushi 63,8%ga teng bo'lgan

bo‘lsa, 2022-yil yakuni bilan yanada oshgan va 76,5%ga etgan. Shu bilan birga, bugungi kunda milliy sug‘urta bozorida eng katta ulushga ega bo‘lgan 2ta sug‘urta kompaniyasi – “O‘zbekinvest” va “APEX Insurance” kompaniyalarining tahlil qilinayotgan yillardagi ulushi mos ravishda 20,5 va 36,7%ni tashkil etmoqda.

Sohaning umumiy sug‘urta tarmog‘ida 34ta sug‘urta kompaniyasi faoliyat yuritayotgan holatda yalpi sug‘urta mukofoti tushumining uchdan bir qismidan ko‘pining (36-37%) 2ta yirik kompaniyaga to‘g‘ri kelishi respublika sug‘urta bozorida raqobat muhitini rivojlantirish bo‘yicha tegishli choralarini amalga oshirish zarurligini taqozo etadi.

Sug‘urta kompaniyalari asosiy sug‘urta faoliyati bilan birga o‘z majburiyatlaridan ozod va qo‘srimcha daromad olish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan mablag‘lar hisobidan investitsiya faoliyatini ham amalga oshiradilar. O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tomonidan investitsiya faoliyatini olib borish bo‘yicha quyidagi investitsiya instrumentlaridan foydalanishlari mumkin:

- bank sertifikatlari;
- O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar davlat qimmatli qog‘ozlari;
- ko‘chmas mulk;
- yuridik shaxslar ustav kapitalida ulush bilan ishtirok etish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan korporativ obligatsiyalar;
- lizing tashkilotlariga kreditlar;
- amaldagi qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa investitsion faoliyat ob’ektlari.

Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorlikni ta’minalash maqsadida, o‘z aktivlarining sifatini doimiy nazorat qilishlari va ularni qaytarishlik, likvidlilik, daromadlilik va diversifikatsiyalash tamoyillari asosida joylashtirishlari, shuningdek, investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagi asosiy shartlarga riyoq qilishi kerak:

- investitsiyalar va ular bilan bog‘liq xatarlarni oqilona boshqarish;
- axborotning shaffofligini va dahlsizligini ta’minalash.

O‘z navbatida, investitsiyalar va ular bilan bog‘liq xatarlarni oqilona boshqarishga investitsion faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradigan investitsiya siyosatini tasdiqlash, investitsiya ob’ektlarini tahlil qilish, olinadigan pirovard daromadni davriy baholash orqali erishish mumkin. Axborotning shaffofligini va dahlsizligini ta’minalash mavjud axborotni amaldagi qonunchilik talablari asosida ochib berish hamda investitsiyalar bo‘yicha ta’sischilarga yillik hisobot berib borish orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda sug‘urta tashkilotlarining investitsion faoliyatiga doir statistik ma‘lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, so‘ngi yillarda ular tomonidan investitsiya maqsadlariga yo‘naltirilayotgan mablag‘lar miqdori sezilarli darajada ortib bormoqda.

Xususan, Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentliginung 2023-yilning 1-yanvar holatiga bo‘lgan ma‘lumotlariga ko‘ra[6], respublika sug‘urta tashkilotlari tomonidan investitsiya maqsadlariga yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmi 4751,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan va 2022-yilning mos davriga nisbatan 26,8%ga oshgan (4-jadval).


4-jadval

O‘zbekistonda sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati[12]

Ko‘rsatkich nomi	01.01.2022 y.		01.01.2023 y.		O’sish sur’ati, %
	mlrd. so‘mda	Jamiga nisbatan % da	mlrd. so‘mda	Jamiga nisbatan % da	
Jami investitsiyalar, shu jumladan:	3 746,7	100,0	4 751,7	100,0	126,8
Depozitlar (omonatlar)	2 208,6	58,9	2 896,6	61,0	131,2
Qimmatli qog‘ozlar	1 096,0	29,3	1 287,9	27,1	117,5
Zaymlar	47,4	1,3	60,8	1,3	128,1
Ko‘chmas mulk	247,6	6,6	358,9	7,6	145,1
Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki	142,2	3,8	118,2	2,5	83,1
Boshqa investitsiyalar	5,1	0,1	29,3	0,6	574,5

Yuqorida keltirilgan 4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2022-yil davomida sug‘urta tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan jami investitsiyalarning 2896,6 mlrd.so‘mi (yoki 61,0%) muddatli bank depozitlariga, 1287,9 mlrd.so‘mi (27,1%) qimmatli qog‘ozlarga, 358,9 mlrd.so‘mi (7,6%) ko‘chmas mulkka, 118,2 mlrd.so‘mi (2,5%) boshqa tashkilotlar ustav fondidagi ulushga, 60,8 mlrd.so‘mi (1,3%) zaymlarga va 29,3 mlrd.so‘mi (0,6%) boshqa investitsiyalarga yo‘naltirilgan.

Sug‘urta tashkilotlarining 2022-yilda investitsiya maqsadlariga yo‘naltirilgan mablag‘larning yo‘nalishini 2021-yil ma’lumotlari bilan solishtirganda ko‘rshimiz mumkinki, uning tarkibida yuqori daromad keltiruvchi investitsiyalar – ya’ni muddatli bank depozitlari (58,9%dan 61,0%ga) va ko‘chmas mulk (6,6%dan 7,6%ga) ulushi oshgan. Buni quida keltirilgan ustunli grafikdada ham yaqqol ko‘rshimiz mumkin (3-grafik).



3-grafik. Respublika sug‘urta tashkilotlarining 2021-2022-yillardagi investitsiyalari tarkibi[12]


Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatining yo'nalishlarida so'nggi yillarda kuzatilgan tendensiyalar 2023-yilda ham saqlanib qolgan bo'lib, 2023-yilning birinchi yarim yilligi ma'lumotlariga asosan, sug'urta tashkilotlarining investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lari miqdori 5190,0 mlrd.so'mni tashkil etgan va 2022-yilning shu davriga taqqoslaganda 28,3%ga ortgan (5-jadval).

5-jadval

O'zbekistonda sug'urta tashkilotlarining 2022-2023 yillar birinchi yarim yillidagi investitsiya faoliyati[12]

Ko'rsatkich nomi	30.06.2022 y.		30.06.2023 y.		O'sish sur'ati, %
	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan % da	mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan % da	
Jami investitsiyalar, shu jumladan:	4075,9	100,0	5190,0	100,0	128,3
Depozitlar (omonatlar)	2 345,5	58,0	3292,4	63,4	140,4
Qimmatli qog'ozlar	1 171,0	28,9	1 267,6	24,4	108,2
Zaymlar	59,4	1,5	51,1	1,0	86,0
Ko'chmas mulk	318,6	7,9	425,6	8,2	133,6
Tashkilotlar ustav fondidiagi ishtiroki	135,3	3,3	119,3	2,3	88,2
Boshqa investitsiyalar	16,1	0,4	33,9	0,7	210,6

O'z navbatida, tarkibga ko'ra, jami investitsiyalarning 63,4% (3292,4 mlrd. so'mi) bank depozitlariga, 24,4% (1267,6 mlrd.so'mi) esa qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda, bank depozitlariga joylashtirilgan mablag'lar miqdori 40,4%ga, jami investitsiyalardagi ulushi esa 58,0%dan 63,4%gacha oshgan (4-grafik).



4-grafik. Respublika sug'urta tashkilotlarining 2022-2023 yillar birinchi yarmidagi investitsiyalari tarkibi[12]

Umuman, sug‘urta tashkilotlarining so‘nggi yillardagi investitsiya faoliyati natijalarining tahlilidan xulosa qilish mumkinki, sug‘urtalovchilarining investitsiyalari asosan (yoki jami investitsiyalarning salkam 95,7%) depozitlarga, qimmatli qog‘ozlarga va ko‘chmas mulkka yo‘naltirilmoqda.

Respublika bo‘yicha umumiy ma’lumotlar (4-5-jadvallar), shuningdek, alohida yirik sug‘urta tashkilotlarining rivojlanish strategiyasiga oid ma’lumotlarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘ngi yillarda sug‘urta tashkilotlari o‘z investitsion siyosatida bo‘sh mablag‘larini asosan tijorat banklarining muddatli depozitlariga hamda boshqa daromadli investitsiyalarga yo‘naltirishga qaratmoqda. Shu o‘rinda xorij tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, masalan Yevropa Ittifoqida sug‘urta tashkilotlarining investitsiya portfelida asosiy ulushni aksiyalar va o‘zgaruvchan daromad keltiruvchi qimmatli qog‘ozlar (37,0%-38,0%), obligatsiyalar va boshqa belgilangan daromad keltiruvchi qimmatli qog‘ozlar (35,0%) va qarzlar (12,0%) tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda milliy sug‘urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirish bo‘yicha belgilangan asosiy yo‘nalishlardan va sohaning xorij tajribasidan kelib chiqib, sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini takomillashtirish va undan olinadigan daromadlarni ko‘paytirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

- daromadlilik, ishonchlilik, diversifikatsiya va likvidlilik mezonlariga asoslangan samarali investitsiya siyosatini yuritishni yo‘lga qo‘yish;
- investitsiya faoliyatining metodologiyasi va omillarini, sug‘urta tashkilotining investitsiya imkoniyatlarini shakllantiruvchi omillar va shartlarni tahlil qilib borish;
- investitsiya instrumentlari ro‘yxatini kengaytirish va investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish;
- investitsiya portfelini muntazam tahlil qilib borish, daromadi past bo‘lgan qimmatli qog‘ozlarni belgilangan tartibda sotish va tushgan mablag‘larni boshqa yuqori daromadli investitsiyalarga yo‘naltirish;
- ipoteka, lizing va mikromoliyalash hamda boshqa bozorlardagi investitsiya faoliyatini rivojlantirish;
- investitsiya faoliyati bo‘yicha Yevropa Ittifoqi va AQSH sug‘urta tashkilotlarining tajribasini o‘rganib borish, ularni O‘zbekistonda joriy etish bo‘yicha mavjud muammoli masalalar va ularning yechimi yuzasidan takliflar kiritib borish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, milliy sug‘urta tashkilotlarining investitsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha tadbirlarni bosqichma-bosqich va tizimli amalga oshirilishi ularning moliyaviy barqarorligini va raqobatbardoshligini oshirishga, shuningdek, sug‘urta faoliyatidan tushadigan katta hajmdagi mablag‘larni oqilona boshqarish orqali investitsiya resurslarining asosiy manbalaridan biriga aylantirishga olib keladi. Bu o‘z navbatida, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” doirasida mamlakatda iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishida sug‘urta sohasining moliyaviy institut sifatidagi o‘rnini mustahkamlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida” O‘RQ-730-son Qonuni.
2. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minalash chora - tadbirdari to‘g‘risida”gi PQ-4412-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktabrdagi “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlanadirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirdarlar to‘g‘risida”gi PQ-5265-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb – sayti: <https://stat.uz/>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlanadirish agentligining rasmiy veb – sayti: <https://imda.uz/>.
7. Emmett J. Vaughan, (“Principles and practice of insurance” (“Sug‘urta tamoyillari va amaliyoti”), 9 nashr, 2007-yil.
8. George Edward Rejda, “The theory of insurance” (“Sug‘urta nazariyasi”), 2016-yil.
9. Richard D. Phillips, “Insurance Economics and Risk Analysis” (“Sug‘urta iqtisodiyoti va risklar tahlili”), 2011-yil.
10. Richard C. Quentin, “Insurance Analysis and Modeling” (“Sug‘urta tahlili va modellashtirish”), 2011-yil.
11. Newton L. Bowers, “Actuarial Mathematics” (“Aktuar matematika”), 1997-yil.
12. Muallif ishlanmasi.